

AHMAD DONISHNING AMU-BUXORO KANALI LOYIHASI TARIXI

Nasritdinov Qobuljon Maxamadjanovich-Andijon davlat chet tillari inistituti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, tarix
fanlar nomzodi.

Xamudullaeva Ruxshona Qilichbek qizi--Andijon davlat chet tillari inistituti,
Roman-german,slavyan tillar fakulteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya

Maqolada mualliflar tomonidan, ilmiy-tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida Qarshi cho‘liga kanal qazib suv chiqarish yo‘li bilan qo‘riq erlarni o‘zlashtirish borasida XIX asrda Buxoro amirligida katta ijtimoiy siyosiy mavqega ega bo‘lgan davlat arbobi Axmad Donish tomonidan ishlab chiqilgan kanal loyihasi tarixi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi,kanal, loyiha, sug‘orish, o‘zlashtirish, Amu-Buxoro kanali, Amudaryo, Qashqadaryo, nasos stansiyasi, to‘g‘on, Muhammad Narshaxiy, V.V. Bartold, Qorakamar, Qarshi, cho‘l.

ИСТОРИЯ ПРОЕКТА АМУ-БУХАРСКОГО КАНАЛА АХМАДА ДОНИША

Насритдинов Кабулжон Махамаджанович-кандидат исторических наук, доцент кафедры социально-гуманитарных наук, педагогики и психологии Андиганского государственного института иностранных языков.

Хамидуллаева Рухшона Киличбек кизи-студентка 1-курса факультета Роман-герман и славянских языков, Андиганского государственного института иностранных языков.

Аннотация

Авторы в статье на основе научно-исторической литературы и источников показывают историческую картину проектирования Аму-Бухарского канала видным общественно-государственным деятелем Бухарского эмирата в XIX века Ахмадом Донишем по освоению и орошению Каршинской степи.

Ключевые слова. Бухарский эмират, канал, проект, ирригация, развитие, Аму-Бухарский канал, Амударья, Кашкадарья, насосная станция, плотина, Мухаммад Наршахи, В.В. Бартольд, Каракамар, Каршинская степь.

Annotation

The authors in the article, based on scientific-historical literature and sources, show a historical picture of the design of the Amu-Bukhara Canal by a prominent

public figure of the Bukhara Emirate in the 19th century, Akhmad Donish, for the development and irrigation of the Karshi steppe.

Keywords. Bukhara Emirate, canal, project, irrigation, development, Amu-Bukhara canal, Amudarya, Kashkadarya, pumping station, dam, Muhammad Narshahi, V.V. Bartold, Karakamar, Karshi steppe.

XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyati qo‘riq erlarini sug‘orib o‘zlashtirish borasida dastlabki amaliy ishlar ya’ni 1959-1966 yillarda Amu-Qorako‘l va Amu-Buxoro mashina kanallar qurilishi ishlari bajarildi, Bu kanallarni mashina deya nomlanishiga sabab voaha sug‘orma dehqonchiligi uchun birdan bir suv manba Amudaryo bo‘lib, u sug‘orilib dehqonchilik qilishi rejalashtirilgan qo‘riq erlarga nisbatan quyida joylashganligi, suv chiqarish uchun kanal o‘zanlariga 7 ta nasos stansiyalardan iborat majmua qurilishi bilan kanal suvlari 60 metr yuqoriga ko‘tarilishi lozim bo‘lganligidadir[1,38-39].

Darhaqiqat, tarixiy manbalardan qayd etilishicha, Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish va Buxoro vohasining sug‘orilib dehqonchilik hududlarini suv ta‘minotini yaxshilash borasidagi ilk ma‘lumotlar X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida uchraydi. XII asrning boshlarida Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Paykent shahriga Amudaryodan suv chiqarish uchun harakat qilingan.

Yana bir tarixiy manbada Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Abdullaxon (1557-1598) davrida Amudaryodan Qarshi viloyatiga kanal qazib suv chiqarilgan. Bu to‘g‘rida V.V. Bartold o‘zining “Turkistonning sug‘orilish tarixiga doir” nomli asarida Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiylar davlatining podshosi Akbar (1556-1604)ning Abdullaxonga yozgan maktubiga ilovasida Abdullaxon davrida Nasaf, ya’ni Qarshi viloyatini sug‘orib obod etish uchun Kelif yaqinida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Qorakamar degan joydan to Qarshigacha kanal qazdirilib suv chiqarilgan. Abdullaxon suv chiqarilgan yangi erlarga aholini ko‘chirib, ularni 5 yil davomida umuman soliqlardan ozod etgan[2,250].

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasini, jumladan Samarqand hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan so‘ng 1868 yil iyun oyida Buxoro amiri va Rossiya imperiyasi tomonidan imzolangan Zirabuloq shartnomasidan belgilab qo‘yilganidek butun Zarafshon vodiysining yuqori qismi Xo‘jand, O‘ra-tepa, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqandning Zirabuloqgacha bo‘lgan hududlari Turkiston general gubernatorligi tasarrufiga o‘tib, Buxoro vohasini suv ta‘minotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Zarafshon daryosining suv taqsimoti huquqi gubernatorlik tasarrufiga o‘tdi[3,186].

Taniqli tarixchi olim, ustozim akademik A.R. Muxammadjonovning yozishicha, Buxoro amirligida turli davlat lavozimlarida faoliyat olib borgan davlat arbobi, olim Ahmad Donish yuzaga kelgan vaziyatdan qutilish, amirlikni general gubernatorlikning

suv qaramligidan butkul ozod etish borasida[4] Buxoro amirlari Muzaffarxon va Abdulahadxonga bir necha marta murojaat etib, Amudaryodan Buxoro vohasi erlarini sug'orish maqsadida yangi kanal barpo etish loyihasini ham taklif etadi. Bu haqda Ahmad Donishning qalamiga mansub "Navodir ul-vaqoe" va "Mang'itlar sulolasi hukmronligi-ning qisqacha tarixi" nomli asarlarida Buxoroning suv ta'minoti to'g'risidagi fikr mulohazalari bayon etilgan.

Ahmad Donish taklif etgan kanal loyihasiga ko'ra, agar qurilajak kanalning Amudaryodan suv olish boshi Kerkidan bo'lsa, kanal suvi Qarshining g'arbi. Qoravul qiri va Mamajug'rotning janubidan dasht va qumli qshriq erlarni sug'orib, kanalning tashlama suvlari Narzam va CHorjo'y yaqinida daryoga kelib quyilishi, agar qurilajak kanalning suv olish boshi Kelif qarshisidan bo'lsa, u vaqtda G'uzor daryosi o'z suv oqimini o'zgartirib, ikki daryo oralig'i (Qashqadaryo va Amudaryo) bo'ylab oqadi. Buning uchun kanalning suv olish boshiga tosh va qir (ganch)dan to'g'on barpo etish, to'g'onning muxofazasi uchun esa miroblar va harbiy qoravullar iborat nazoratchilar guruxini tayin etish lozimligi bayon etilgan[5,251-260].

Darhaqiqat, olimning yozishicha, Ahmad Donish hisob, handasa (geometriya) va jug'rofiya (geografiya) fanlarni mukammal egallagan, o'z zamonasining ilmi kishilaridan bo'lib, Zarafshon va Amudaryo vodiylarining topografiyasini, ayniqsa, ularning gidrografiya yoxshi bilgan.

Lekin, Buxoro amirlarining jumladan, amir Muzaffarxonning "Buxoroning avvalgi podisholari Amudan suv olmaganlar, balki u yoqdan keladigan suvning boshini berkittirganlar. Bunga sabab shuki, mabodo dushmanning hujumi yoki daryo toshqini sodir bo'lib qolsa, Buxoroni suv bosib, u vayron bo'ladi. Amudan suv olish xilof maslahatdir" degan noma'qul vajlar ko'rsatilib, suv chiqarishni xohlamagan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Buxoro amirlarining Buxoro qo'riq erlariga suv chiqarib, Turkiston general gubernatorligidan suv ta'minoti bo'yicha mustaqillikni qo'lga kiritish borasidagi takliflari "Amir Temur dunyoning to'rtdan bir qismida jasorati, mardligi bilan nom qozongan bo'lsa, Buxoro amirlari badaxloqliklari, irodasizliklari, qo'rzoqliklari bilan o'z nomlarini badnom qildilar" [6.] deya Ahmad Donish tomonidan bildirilgan fikrlari ne chog'lik to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. Nasritdinov Q.M. O'zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya qurilishining rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini (1981-1990 yillar) Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Adijon-1994. B.38-39.
2. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha) T.: Fan. 1972-B.-250.
3. Murtazaeva R.X., Doroshenko T.I. Istoriya Uzbekistana (Uchebnik dlya studentov vysshix uchebnykh zavedeniy-T.: Fan va texnologiya, 2011.-S.186.

4. Ahmad Donishning yozishicha, Samarqand rus davlati tomonidan zabt etilganidan so‘ng, Buxoroning suvi nuqsonga yuz tutdi. Chunki, Zarafshon suvi imorat va ziroatga ko‘proq sarflanmoqda. Daryo suvining uchdan ikki qismi u erda sarflanib. Faqat uchdan bir qismi Buxoroga etib kelguncha bahorgi va yozgi hosillarimiz nobud bo‘lmoqda.
5. Batafsil qarang; Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha) T.: Fan. 1972-B.-251-260.
6. Mungli kechmish yoxud tarixdan bir saboq...(Tarix fanlari doktori Qahramon Rajabov bilan muloqot) (2014). <https://ziyouz.uz/suhbatlar/qahramon-rajabov-mungli-kechmish-yoxud-tarixdan-bir-saboq/>.

